

Tarixi

Gidromelioratsiya fakulteti 1923 yilda Turkiston Davlat universitetining texnika fakulteti tarkibida "Melioratsiya muhandisligi" mutaxassisligi bo'yicha soha kadrlarini tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. Fakultet tashkil etilgan ilk davrlarda 49 nafar professor-o'qituvchilar 274 talabalarga melioratsiya muhandisligi bo'yicha bilim bera boshlagan. Gidromelioratsiya fakulteti tarixi universitetning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, 1934 yil 16 noyabrda «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish injenerlari instituti» tarkibida faoliyat ko'sata boshlagan. Fakultetining tashkil etilishi, rivojlanishi, O'rta Osiyo miqyosida nufuzli ilmiy markaz sifatida shakllanishida etuk olimlar, yirik mutaxassislarning hissalarini beqiyosdir. Ayniqsa V.D.Jurin, T.N.Qori-Niyozov, A.N.Gostunskiy, B.D.Korjavin, X.A.Axmedov, A.N.Askochenskiy, V.V.Poslavskiy, N.A.Yanishevskiy, V.F.Bulayevskiy, F.P.Morgunenkov, Ye.I.Zamarin, N.V.Makridin, S.T.Altunin, T.A.Kolpakovalarning sayi-harakatlari tufayli fakultet ilm-ta'lif yo'nalishlarda etakchilik qilgan. Bugungi kunda fakultet tarkibida "Gidravlika va gidroinformatika", «Gidrologiya va gidrogeologiya», «Irrigatsiya va melioratsiya», «Gidromeliorativ tizimlaridan foydalanish», «Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalashi», «Professional ta'lif», «Hayot faoliyat xavfsizligi», «Fizika va kimyo» kafedralari va «Ekogis» markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Fakultetda kafedralar va markazlarning tajribali professor-o'qituvchilari talabalar va magistrler uchun zamonaviy talablar darajasida ilmiy tadqiqot va ta'lif jarayoni tashkil etilgan.

Oxirgi yillarda fakultetda «Suv xo'jaligi va melioratsiya», «Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish», «Gidrologiya», «Meliorativ gidrogeologiya» «Professional ta'lif», «Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarni mexanizatsiyalashtirish», «Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi», Materiallarshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi ta'lif yo'nalishlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlari uchun mutaxasislar tayyorlab kelayotgan bo'lsa, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 dekabrdagi PQ-42 sonli qaroriga muvofiq «Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish» ta'lif yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga quyildi. Ushbu ta'lif yo'nalishlari bo'yicha bugungi kunda 1200 nafardan ortiq talabalar zamonaviy sharoitda tahsil olmoqdalar. Shuningdek fakultet halqaro hamkorlik borasida AQSh, Yevropa mamlakatlari, MDX va Sharq mamlakatlarining nufuzli ilmiy tadqiqot institulari va universitetlari bilan keng qamrovli ilmiy, metodik hamda academic mobililik yo'nalishlarida samarali aloqa tizimi yo'lga qo'yilgan.